
FUQARO MUROJAATI O'RGANILDI.



Ijtimoiy tarmoqlar orqali Quva tumani Kandabuloq maxalla fuqarolar yig'inida yashovchi fuqaro Sh.Qambarovning buyrak kasaliga chalingan ayoliga yordam so'rab qilgan murojaati tuman hokimligi va tegishli mas'ullar ishtirokida ko'rib chiqildi. O'rganish davomida quyidagilar aniqlandi.

Fuqaro Z.Sodiqova 2010 yildan buyon "Surunkali glomerulanifrit" tashxisi bilan ambulator shifoxona sharoitida davolanib kelmoqda. 2013 yilda salomatligi sababli tibbiy xujjatlar asosida 88-sonli Quva tumanlararo TMEK tomonidan 3-guruh nogironligi belgilangan. 2021 yilda davolanish natijadorligi samara bermaganligi sababli joriy yilning may oyida Voxidov nomidagi respublika ixtisoslashgan xirurgiya markaziga murojaat qilgan. Markazning hulosasi bo'yicha "Surunkali glomerulanifrit aralash turi, tez-tez qaytalanishi, buyraklar ikkilamchi bujmayishi, surunkali buyrak yetishmovchiligi 2-daraja, urumiya, kamqonlik" tashxisi belgilangan va yakuniy hulosasi bo'yicha buyrak ko'chirib o'tkazish bo'yicha tavsiya berilgan. Imtiyozli order olish nizomida 1-2-guruh nogironligi belgilangan bemorlarga viloyat, respublika markazlariga imtiyozli order olish huquqi borligini inobatga olgan holda tuman tibbiyot birlashmasi ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi vrach nefrologlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining diagnostika tekshiruvlaridan o'tkazilib tuman, viloyat va respublika markazlari klinik hulosalari asosida forma 088/U shakl xujjatlari rasmiylashtirilib, nogironlikni muddatdan oldin qayta ko'rib chiqish uchun 88-sonli Quva tumanlararo TMEKga tibbiy xujjatlar 17.06.2021 yil kuni taqdim qilingan va 21.06.2021 yil kuni TMEK tomonidan nogironlikni muddatidan oldin qayta belgilash uchun ro'yxatdan o'tkazilib tegishli komissiya hulosasiga asosan 2-guruh nogironligi belgilangan.

Quva tuman hokimligi

Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Youtube](#)

2021-06-22 10:22:44